



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 230 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinova	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakulov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	

ADABIYOT DARSLARIDA LIRIK ASARLARNI VIZUAL YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QITISH USULLARI

Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada lirik asarlarni o'qitishda vizual yondashuvlardan foydalanish masalasi yoritiladi. Lirik matnlar o'quvchilarning hissiy dunyosiga yaqin bo'lgani sababli, ularni tushuntirishda rasm, sxema, klaster, videolavha kabi ko'rgazmali vositalardan foydalanish samarali natija beradi. Maqolada vizual metodlar orqali o'quvchilarning matnni chuqur anglash, obrazlarni tasavvur qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bunday yondashuv lirik asarning mazmuni va badiiy xususiyatlarini o'quvchilar uchun yanada tushunarli hamda qiziqarli tarzda ochib berishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: lirik asar, vizual yondashuv, adabiyot darsi, badiiy tahlil, ko'rgazmali vositalar, obraz, o'qitish metodlari.

Abstract: This article discusses methods of teaching lyrical works through visual approaches. Since lyrical texts are closely connected with students' emotional perception, the use of visual materials such as pictures, diagrams, clusters, and videos helps learners better understand the meaning of the text. The article analyzes how visual methods can develop students' imagination, analytical thinking, and deeper comprehension of literary works. It is emphasized that such approaches make the interpretation of lyrical works more engaging and understandable for students.

Key words: lyrical works, visual approach, literature lesson, literary analysis, visual materials, imagery, teaching methods.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы обучения лирическим произведениям на основе визуального подхода. Поскольку лирические тексты тесно связаны с эмоциональным восприятием учащихся, использование наглядных средств – рисунков, схем, кластеров и видеоматериалов – способствует более глубокому пониманию содержания произведения. В статье анализируются возможности развития у учащихся навыков анализа текста, воображения и самостоятельного мышления посредством визуальных методов. Подчеркивается, что такой подход помогает раскрыть художественные особенности и смысл лирических произведений более доступно и интересно для учеников.

Ключевые слова: лирическое произведение, визуальный подход, урок литературы, художественный анализ, наглядные средства, образ, методы обучения.

KIRISH

Adabiyot darslari inson ruhiyati va tafakkurini tarbiyalaydigan eng muhim fanlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, lirik asarlar o'quvchining qalbi, hissiy olami va estetik didini shakllantirishda katta o'rin tutadi. Lirik matnlarda ko'pincha shoirning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, quvonchlari, tabiat manzaralari yoki hayot haqidagi chuqur mulohazalari aks etadi. Shu sababli bunday asarlarni o'qitish jarayoni oddiy matn o'qish yoki savol-javob bilan cheklanib qolmasligi kerak. Lirik asar o'quvchi tomonidan faqat tushunilbina qolmay, balki his qilinishi, tasavvur qilinishi va qalban qabul qilinishi lozim. Ko'pincha amaliyotda shunday holat kuzatiladiki, o'quvchilar she'r yoki boshqa lirik matnni o'qib chiqadilar, lekin undagi obraz, kayfiyat yoki g'oyani to'liq tasavvur qila olmaydilar. Natijada matnning badiiy jozibasi sezilmay qoladi va o'quvchi uchun asar oddiy satrlar yig'indisidek tuyulishi mumkin. Bunday vaziyatda o'qituvchining vazifasi matnni jonlantirish, undagi badiiy manzarani o'quvchi tasavvurida gavdalanitirishdan iborat bo'ladi. Aynan shu jarayonda vizual yondashuvlar katta yordam beradi.

Vizual yondashuv deganda ma'lumotni ko'rish orqali anglashga yordam beradigan turli vositalardan foydalanish tushuniladi. Bular rasm, chizma, klaster, infografika, rangli sxemalar, videolavhalar yoki turli interfaol tasvirlar bo'lishi mumkin. Inson tafakkuri ko'rish orqali berilgan ma'lumotni tezroq qabul qilishi ilmiy jihatdan ham isbotlangan. Shu bois lirik asarlardagi obrazlar, manzaralar va ruhiy holatlarni tasvirlar orqali ifodalash o'quv-



chining matnini yanada chuqurroq anglashiga yordam beradi. Masalan, she'rda tasvirlangan tabiat manzarasi yoki ruhiy kayfiyatni rasm orqali ifodalash o'quvchi tasavvurini boyitadi va uning matn bilan hissiy aloqasini kuchaytiradi.

Bugungi ta'lim jarayonida innovatsion metodlar, interfaol yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Zamonaviy o'quvchi an'anaviy, faqat tinglashga asoslangan darsdan ko'ra faol ishtirok etadigan, tasvirlar va texnologiyalar bilan boyitilgan darslarni qiziqish bilan qabul qiladi. Shuning uchun adabiyot darslarida ham yangicha yondashuvlarni qo'llash zarur. Vizual metodlar aynan shu ehtiyojga javob beradi. Bunday yondashuv o'quvchini passiv tinglovchidan faol fikrlovchi, tahlil qiluvchi va ijodkor shaxsga aylantiradi. Lirik asarlarni vizual asosda o'qitish o'quvchilarning nafaqat matnini tushunishiga, balki uning badiiy qiymatini his qilishiga ham xizmat qiladi ^[2:89].

O'quvchi she'rni o'qibgina qolmay, undagi obrazni rasm orqali ifodalaydi, klaster yoki sxema orqali asosiy g'oyani ajratadi, videolavhalar orqali esa asar ruhiyatini yanada chuqurroq anglaydi. Bunday jarayon o'quvchilarning tasavvuri, ijodiy fikrlashi va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, adabiyot darslari jonli, qiziqarli va esda qolarli bo'lib boradi. Shu nuqtai nazardan, lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish masalasi zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bunday metodlar o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, matnini chuqur tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish va adabiyotga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada lirik asarlarni o'qitishda vizual metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari, ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyot ta'limi jarayonida badiiy asarlarni o'qitish metodikasi ko'plab olimlar va metodistlar tomonidan tadqiq etilgan muhim yo'nalishlardan biridir. Ayniqsa, lirik asarlarni o'qitish masalasi o'zining murakkabligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chunki lirik asarlarda voqea tasviri emas, balki insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va his-tuyg'ulari markaziy o'rin egallaydi. Shu sababli bunday asarlarni o'qitishda o'quvchining matnini nafaqat tushunishi, balki undagi badiiy kayfiyatni his qilishi ham muhim hisoblanadi. Metodik adabiyotlarda aynan shu jihat alohida ta'kidlanadi. Adabiyot o'qitish metodikasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda badiiy matnini o'qitish jarayoni o'quvchining tafakkuri, tasavvuri va estetik didini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq ekanini qayd etiladi.

Q. Yo'ldoshevning: "Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Lirikada voqealar tasviri, xarakter mantig'i emas, ruhiy holat tasviri, hissiyot ifodasi, tuyg'ular samimiyati muhimdir. Chinakam lirik she'r tinglovchi yo o'quvchiga faqat zavq beribgina qolmay, uning emosional-axloqiy imkoniyatlarini uyg'otadi, faoliyatga undaydi. Samimiy lirik so'z hatto real voqelik hodisalariga qaraganda ham inson ruhiyatiga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligi psixologiya ilmi xulosalaridan ma'lum", – degani fikrimizni dalillaydi ^[12:235].

Olimning fikricha, badiiy asarni o'qitishda o'quvchi tayyor xulosalarni qabul qiluvchi emas, balki asar ustida mustaqil fikr yurituvchi faol shaxs sifatida shakllanishi lozim. Bu esa o'qituvchidan dars jarayonida turli metod va yondashuvlardan foydalanishni talab etadi. Boqijon To'xliyev o'zining "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli qo'llanmasida lirik asarlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratadi ^[10]. U darslarda lirik janrlarning xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularni qabul qilishning o'quvchilar uchun o'ziga xos jihatlarni aniqlash va poetik matnini tahlil qilish metodlarini taklif qiladi. Shuningdek, lirik asarlarni maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji va oliy ta'lim muassasalarida samarali o'qitish usullari ham qo'llanma doirasida yoritilgan. Bu esa o'qituvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy metodikalarni ham berib, darslarni yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini yaratadi. Yana bir muhim jihat shundaki, lirik asarlarni o'qitishda vizual yondashuvlar asosida ishlash usullari katta ahamiyatga ega. Masalan, she'rning mazmunini tushunishda rasm, diagramma, video yoki dramatik sahnalardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni matn bilan chuqurroq bog'laydi. Vizual vositalar yordamida o'quvchilar she'rdagi obrazlarni ko'rish, ohang va ritmni his qilish imkoniga ega bo'ladi. Shu tariqa vizual yondashuvlar lirik matnini nafaqat o'qib tushunishni, balki hissiyot orqali qabul qilishni ham osonlashtiradi. "Bizda she'riy janrlar va lirik asarlar haqida yozilgan tadqiqotlar nihoyatda ko'p. Bu bejiz emas. Aslida, bizning adabiyotimiz tarixi tom ma'noda lirik asarlar tarixi bilan chambarchas bog'liq.

Klassik adabiyotimizdagi g'azallar ming yillar davomida adabiyotimizning butun kuch va qudratini, tilimizning nazokat va tarovatini ko'rsatadigan belgi bo'lib kelgan. Bu esa lirik asarlarning ahamiyati va ularni o'rganish zaruratini yanada oshiradi", – deya ta'kidlaydi B. To'xliyev ^[10:46].

Shuni aytish kerakki, lirik asarlarni o'qitish faqat darslikni o'qishdan iborat emas; bu jarayon o'quvchilarning hissiyatini uyg'otish, ularni so'zning sehriga oshno qilish va poetik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Vizual yondashuvlar orqali darsni boyitish esa o'quvchilarni adabiyotga muhabbat bilan bog'laydi, ularning tafakkurini va estetik didini yanada boyitadi. Adabiyot o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda yana bir muhim jihat – badiiy



asarni idrok etishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish masalasidir. Bu borada Qodir Husanboyev hamda Rano Niyozmetova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda adabiyot darslarida turli metod va vositalardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshirishi, ularning mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi haqida fikr yuritiladi ^[3].

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, dars jarayonida rasm, sxema, klaster, jadval kabi ko'rgazmali vositalardan foydalanish o'quvchilarning badiiy matnni tasavvur qilishiga yordam beradi. Badiiy matnni o'qitish va tahlil qilish masalalari rus adabiyotshunoslari tomonidan ham keng o'rganilgan. Jumladan, Viktor Vinogradov badiiy matnning til va uslub xususiyatlarini o'rganish orqali asarning mazmunini chuqur anglash mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, badiiy matnni tahlil qilish jarayonida til birliklari, obrazlar va ifoda vositalari o'zaro bog'liq holda o'rganilishi zarur ^[11:21].

Shuningdek, Vladimir Propp badiiy matnni o'rganishda uning tuzilishi va obrazlar tizimini tahlil qilish muhim ekanini ta'kidlaydi. Garchi olim asosan folklor va epik asarlarni tadqiq qilgan bo'lsa-da, uning nazariy qarashlari badiiy matnni tizimli tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi ^[7].

Adabiyot o'qitish metodikasiga oid ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, badiiy asarlarni samarali o'qitish uchun an'anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy metodlardan ham foydalanish muhimdir. Ayniqsa, lirik asarlarning obrazli va hissiy tabiati ularni o'qitishda tasviriy va vizual yondashuvlardan foydalanishni taqozo etadi. Vizual vositalar yordamida o'quvchilar asardagi manzara, obraz va kayfiyatni yanada aniqroq tasavvur qiladi, bu esa matnni chuqurroq idrok etishga xizmat qiladi. Shu sababli lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish zamonaviy adabiyot ta'limining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Avvalo, adabiyot o'qitish metodikasiga oid ilmiy manbalar o'rganilib, lirik asarlarni o'qitishning nazariy asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida darslarda rasm, klaster, sxema va videolavhalar kabi vizual vositalardan foydalanish orqali o'quvchilarning matnni tushunish darajasi kuzatildi. Olingan natijalar an'anaviy dars usullari bilan taqqoslanib, vizual yondashuvlarning o'quvchilarning tasavvuri, mustaqil fikrlashi va badiiy matnni anglashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Lirik asarlarni o'qitish metodikasiga oid ilmiy qarashlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, turli olimlar bu jarayonning turli jihatlariga e'tibor qaratgan bo'lsalar-da, ularning umumiy maqsadi badiiy matnni chuqur anglay oladigan o'quvchini shakllantirish bilan bog'liq. Tadqiqot jarayonida o'rganilgan ilmiy manbalarda lirik asarlarning estetik tabiati, ularni o'qitish metodlari hamda badiiy matnni idrok etish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Qozoqboy Yo'ldoshevning ilmiy qarashlarida adabiyot darsining asosiy vazifasi o'quvchini badiiy tafakkurga yo'naltirish ekani alohida ta'kidlanadi ^[13].

Olim lirik asarlarni o'qitishda o'quvchining hissiy idroki va mustaqil fikrlashini faollashtirish zarurligini qayd etadi. Uning fikricha, lirik matnni anglash jarayoni o'quvchining ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, asar mazmuni faqat tayyor talqinlar orqali emas, balki o'quvchining shaxsiy idroki orqali ochilishi kerak. Boqijon To'xliyev esa lirik asarlarni o'rganishda poetik tahlilga alohida e'tibor qaratadi. Uning metodik qarashlarida asarning badiiy tuzilishi, obrazlar tizimi va tasviriy vositalarini izchil tahlil qilish muhim o'rin tutadi ^[15:59].

Demak, Q. Yo'ldoshev ko'proq o'quvchining badiiy tafakkurini rivojlantirishga urg'u bergan bo'lsa, B. To'xliyev lirik matnning poetik tahlil mexanizmlarini chuqurroq yoritadi.

Qodir Husanboyev va Rano Niyozmetova tomonidan olib borilgan metodik tadqiqotlarda esa adabiyot darslarida ko'rgazmali vositalar va interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi alohida ta'kidlanadi ^[3].

Tadqiqotchilar badiiy matnni o'rganishda rasm, sxema, jadval va boshqa ko'rgazmali vositalar o'quvchilarning matnni tasavvur qilish qobiliyatini kuchaytirishini qayd etadi. Bu jihat mazkur maqolada ilgari surilayotgan vizual yondashuv g'oyasi bilan bevosita uyg'unlashadi.

Rus adabiyotshunosligida ham badiiy matnni tahlil qilish masalasi keng o'rganilgan. Masalan, V. Vinogradov badiiy asarning til va uslub xususiyatlarini o'rganish orqali uning mazmunini chuqurroq anglash mumkinligini ta'kidlaydi. Uning nazariy qarashlarida badiiy matn til birliklari, obrazlar va stilistik vositalar o'zaro bog'liq holda tahlil qilinishi zarurligi ko'rsatiladi ^[11].

V. Propp esa badiiy matnni strukturaviy jihatdan tahlil qilishga e'tibor qaratadi. Garchi uning tadqiqotlari asosan folklor va epik asarlarga bag'ishlangan bo'lsa-da, matn tuzilishini tizimli tahlil qilish haqidagi nazariy qarashlari boshqa badiiy janrlarni o'rganishda ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi ^[7].



Mazkur ilmiy qarashlar o'rtasidagi o'xshashlik shundaki, ularning barchasi badiiy matnni chuqur idrok etish zarurligini ta'kidlaydi. Biroq yondashuvlarida ayrim farqlar ham mavjud: o'zbek metodistlari asosan adabiyot darsining pedagogik jihatlariga e'tibor qaratib, o'quvchi tafakkurini rivojlantirish masalasini ilgari suradi. Rus adabiyotshunoslari esa ko'proq badiiy matnning lingvistik va strukturaviy tahliliga urg'u beradi ^[4:49].

Ushbu nazariy qarashlarni uyg'unlashtirish lirik asarlarni o'qitishda yanada samarali metodlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ayniqsa, vizual yondashuvlar badiiy matnni idrok etish jarayonini sezilarli darajada faollashtirib, o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, poetik obrazlarni anglashni osonlashtiradi hamda mustaqil talqin qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Shu jihatdan qaralganda, vizual metodlardan foydalanish lirik asarlarni o'qitishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari bilan uyg'unlashib, adabiyot ta'limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida lirik asarlarni o'qitishda vizual yondashuvlardan foydalanishning o'quvchilarning badiiy tafakkuri va matnni idrok etish jarayoniga ta'siri tahlil qilindi. Ma'lumki, lirik asarlar o'zining obrazlilik, ramziy ma'nolari hamda hissiy-estetik mazmuni bilan boshqa adabiy janrlardan farq qiladi. Shu bois bunday asarlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarning faqat mantiqiy tahlil qilish qobiliyati emas, balki tasavvur qilish, sezish va badiiy obrazni his etish kabi jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi ^[12:79].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, vizual yondashuvlar aynan shu jihatlarni faollashtiruvchi samarali metodlardan biri hisoblanadi. 7-sinf "Adabiyot" darsligida berilgan lirik asarlar misolida amaliy jihatdan mavzuni oydinlashtiramiz. Quyida Mirtemir ijodidan namuna keltirilgan:

*Bu – men tug'ilgan tuproq. Ha, men tug'ilgan tuproq,
Tog'lar, ko'm-ko'k adirlar, daryolar, cheksiz qumloq.
Bo'ronlar qamchilashar, yomg'irlar tomchilashar,
Qishda qalin qordan oq, kuzda-chi, paxtadan oq.
Taqvodorday cho'k tushib, peshonamni qo'yaman,
Onam kabi o'paman, qalb mehriga to'yaman.
Kayxusrav qilichidan kesikbosh bobom xoki,
Kim noxos oyoq qo'ysa, haqoratga yo'yaman* ^[2:332].

Mazkur she'rning asosiy g'oyasi – ona yurtga bo'lgan samimiy muhabbat va sadoqatni lirik ruhda ifodalashdir. "Bu – men tug'ilgan tuproq" misrasi orqali shoir o'quvchiga tarixni bog'laydigan psixologik bog'liqlikni ochadi.

Tabiat tasvirlari – tog'lar, adirlar, daryolar, qumloqlar – orqali yurtning geografik go'zalligi bilan birga uning ruhiy va ma'naviy qadrini ham his ettirish mumkin. Bo'ron, yomg'ir, qish va kuz fasllari ifodasi orqali shoir tabiiy muhit bilan insonning ichki kechinmalari orasidagi o'ziga xos uyg'unlikni yaratadi. Ushbu she'r o'quvchiga faqat matn sifatida emas, balki tabiat va hissiyotlarning to'liq manzarasi sifatida yaqinlashish imkonini beradi. O'quvchi "Bu – men tug'ilgan tuproq" satrlarini o'qiyotganda nafaqat so'zlarni ko'radi, balki tog'larning ko'm-ko'k adirlari, daryolar va cheksiz qumloqlarni tasavvur qiladi; daryo shovqini yoki yomg'ir tomchilarining tinch shiviri eshitilgandek his qiladi. Qishda qalin qorning oq rangini ko'rib, kuzda paxtaning oqligini ko'z oldida tasavvur qiladi, bu esa vizual sezgilarni uyg'otadi va matnni jonli qiladi. She'rning hissiy qatlami multisensor yondashuv bilan yanada chuqurlashadi: o'quvchi peshonasini yerga qo'yish, ona mehrini his qilish, boboning xotirasini yodga olish kabi hissiy tajribalarni o'z ichiga oladi. Bu tovush, rang va hissiyotlarning uyg'unlashuvi o'quvchida she'r bilan chuqur bog'lanishni yaratadi; u matnni nafaqat tushunadi, balki uni o'z qalbida his qiladi. O'quvchi she'r o'qiyotganida shamol, bo'ron, yomg'ir ovozi va tabiat hodisalariga mos suratlar dars jarayonida qo'llanilsa, dars yanada qiziqarli va samarali o'tadi. Natijada she'r o'quvchiga tirik manzara va jonli hissiyot sifatida yetib boradi, har bir satr va har bir tasvir u bilan birga yashaydi.

Kuzatuvlar davomida aniqlanishicha, lirik matnlar bilan ishlash jarayonida tasviriy vositalardan foydalanish o'quvchilarning matnni qabul qilish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, badiiy obrazlarni rasm yoki grafik tasvirlar orqali ifodalash o'quvchilarning poetik tafakkurini faollashtiradi va matndagi yashirin ma'no qatlamlarini anglashga yordam beradi. Bunday jarayonda o'quvchi matnga passiv o'quvchi sifatida emas, balki mazmunni izlovchi va talqin qiluvchi subyekt sifatida yondashadi. Natijada badiiy matn bilan o'quvchi o'rtasida ma'naviy-estetik aloqa shakllanadi. Bunday metodlar o'quvchilarning matn ustida mustaqil ishlash ko'nikmasini ham mustahkamlaydi. Ayniqsa, lirik matnlarning ramziy va ko'p qatlamli ma'nosini ochishda vizual modellash-tirish samarali natija berishi kuzatildi ^[2:13].

Tadqiqot natijalari vizual yondashuvlarning o'quvchilarning kommunikativ va ijodiy faolligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Vizual materiallar asosida tashkil etilgan muhokama va tahlil jarayonlarida o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalashga intiladi, turli talqinlarni ilgari suradi hamda badiiy matnni turli nuqtai nazardan baholashga harakat qiladi. Bu esa adabiyot darslarida o'quvchilarning interpretativ tafakkurini rivojlantiradi.



Hozir biz 6-sinf adabiyot darsligida berilgan Ibroyim Yusupovning “Qadrdon so‘qmoqlar” she‘rini birgalikda tahlil qilamiz va uning ta‘lim jarayonida qanday qilib samarali o‘qitilishi haqidagi mulohazalarni ko‘rib chiqamiz:

*Qizil kendir bilan shivirlashar tol,
Turna uchib borar olis yoqlarga.
Talay yo‘llar bosib, misoli shamol,
Yana qaytib keldim bu so‘qmoqlarga.
Ushbu tor so‘qmoqqa qadam qo‘yganda,
Qaytadan men bola bo‘lib ketaman.
Intiqqan yuragim kengayib shunda,
Chamamda qush bo‘lib parvoz etaman* ^[1:151].

Lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o‘qitish nafaqat o‘quvchilarning matnni tushunish darajasini oshiradi, balki ularning badiiy-estetik tafakkuri, tasavvur doirasi hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bunday metodlar adabiyot darslarining metodik imkoniyatlarini kengaytirib, o‘quvchining badiiy matn bilan faol muloqotga kirishadigan ijodkor shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu she‘rga mos videoroliklar va suratlar o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. Shu jihatdan qaralganda, vizual yondashuvlar zamonaviy adabiyot ta‘limining samaradorligini oshiruvchi innovatsion metodlardan biri sifatida e‘tirof etilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Lirik asarlar adabiyot ta‘limining o‘ziga xos va murakkab qatlamlaridan biri bo‘lib, ular orqali o‘quvchining ruhiy dunyosi, estetik didi va badiiy tafakkuri shakllanadi. Bunday asarlarda voqealar rivoji yoki aniq syujetdan ko‘ra insonning ichki kechinmalari, tuyg‘ulari va ruhiy holati muhim o‘rin tutadi. Shu sababli lirik matnlarni o‘qitish jarayoni an‘anaviy izoh va savol-javob bilan cheklanib qolmasligi kerak. Aksincha, o‘quvchini asar mazmunini his etishga, undagi obrazlar va kayfiyatni tasavvur qilishga undaydigan metodlar qo‘llanishi zarur. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, lirik asarlarni o‘qitishda vizual yondashuvlardan foydalanish ana shunday samarali metodlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida o‘rganilgan nazariy manbalar va pedagogik kuzatuvlar asosida shuni aytish mumkinki, vizual vositalar yordamida tashkil etilgan dars jarayoni o‘quvchilarning badiiy matnni qabul qilish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Rasm, sxema, klaster, jadval, infografika yoki videolavhalar orqali ifodalangan badiiy manzaralar o‘quvchilarga she‘riy matndagi obrazlarni aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar matnni faqat mantiqiy jihatdan emas, balki hissiy-estetik jihatdan ham chuqurroq anglay boshlaydi. Bu esa lirik asarning asosiy xususiyati – hissiy ta‘sir kuchini o‘quvchi ongiga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Vizual yondashuvlar o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, she‘riy matn asosida rasm chizish, klaster yoki konseptual sxema tuzish kabi faoliyatlar o‘quvchilarning asarni mustaqil talqin qilishiga yordam beradi.

Bunday jarayonda o‘quvchi matnni passiv tarzda qabul qilmaydi, balki undagi ma‘no qatlamlarini izlashga, obrazlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga va o‘z xulosalarini shakllantirishga harakat qiladi. Bu esa o‘quvchilarning interpretativ tafakkurini rivojlantiradi hamda ularni badiiy matn bilan faol muloqotga kirishadigan shaxs sifatida shakllantiradi. Ilmiy adabiyotlar tahlili ham lirik asarlarni o‘qitishda o‘quvchi tafakkurini faollashtiruvchi metodlarning muhimligini ko‘rsatadi.

Qozoqboy Yo‘ldoshev o‘z tadqiqotlarida adabiyot darslarining asosiy vazifasi o‘quvchini badiiy tafakkurga yo‘naltirish ekanini ta‘kidlaydi.

Boqijon To‘xliyev esa lirik asarlarni o‘rganishda poetik tahlil va obrazlar tizimini chuqur o‘rganish zarurligini qayd etadi.

Qodir Husanboyev hamda Rano Niyozmetova tomonidan olib borilgan metodik izlanishlarda esa ko‘rgazmali vositalardan foydalanish o‘quvchilarning matnni tushunish darajasini oshirishga xizmat qilishi alohida ta‘kidlanadi.

Ushbu ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, vizual metodlar nafaqat zamonaviy pedagogik yondashuvlarga mos keladi, balki adabiyot ta‘limining nazariy asoslari bilan ham uyg‘unlashadi. Vizual materiallar asosida tashkil etilgan muhokama va tahlil jarayonlarida o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifodalashga intiladi, turli talqinlarni ilgari suradi hamda matnni turli nuqtayi nazardan baholashga harakat qiladi. Bunday jarayon o‘quvchilarning nafaqat adabiy tafakkurini, balki nutq madaniyati va muloqot ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Natijada adabiyot darslari o‘quvchi uchun qiziqarli, ijodiy va esda qolarli ta‘lim jarayoniga aylanadi. Tasviriy vositalar orqali berilgan badiiy manzaralar o‘quvchilarga asardagi go‘zallikni, poetik ohangni va estetik mazmunni chuqurroq his etish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchining adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va uning badiiy tafakkurini boyitadi.



Xulosa qilib aytganda, lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish adabiyot ta'limining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim metodik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning matnni chuqur idrok etishiga, poetik obrazlarni aniq tasavvur qilishiga hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Natijada o'quvchi badiiy matnni oddiy o'quv material sifatida emas, balki estetik va ma'naviy qadriyat sifatida qabul qila boshlaydi. Kelgusida lirik asarlarni o'qitishda vizual metodlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ularni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish va interfaol ta'lim shakllari bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv adabiyot ta'limining metodik salohiyatini oshirib, o'quvchilarni badiiy tafakkuri rivojlangan, estetik didi shakllangan va mustaqil fikrlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov, S., Qo'chqorov, R., & Rizayev, Sh. (2017). Adabiyot 6. Toshkent: Ma'naviyat.
2. Yo'ldoshev, Q., Qosimov, B., Qodirov, V., & Yo'ldoshbekov, J. (2017). Adabiyot 7. Toshkent: Sharq.
3. Husanboyev, Q., & Niyozmetova, R. (2018). Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
4. Ismatullayeva, N. (2019). Adabiyot ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Karimov, N. (2010). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
6. Mahmudov, M. (2017). Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Sharq.
7. Пропп, В. Я. (1969). Морфология сказки. Москва: Наука.
8. Quronov, D. (2018). Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: Akademnashr.
9. Sodiqov, Q. (2016). Badiiy matn tahlili asoslari. Toshkent: Fan.
10. To'xliyev, B. (2006). Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
11. Виноградов, В. В. (1980). О языке художественной литературы. Москва: Высшая школа.
12. Yo'ldoshev, Q. (1996). Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
13. Yo'ldoshev, Q. (1997). Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari (Ped. fan. doktori diss.). Toshkent.
14. Yo'ldoshev, Q., & Yo'ldosheva, M. (2022). O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
15. Zunnunov, A. (1994). Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.